


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


2/2023

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

2/2023

<https://buxdu.uz>

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ		
Latipov H.M.	To'rtinchi tartibli operatorli matritsaga mos Fredgol'm determinantining asosiy xossalari	3
Norqulov J.F., Kengboyev S.A., Azimov R.B.	Silindrik tishli uzatmalarda tishnig qiyalik burchagi o'zgarganda ta'sir qiladigan kuchlarni aniqlash va ishlash samaradorligini takomillashtirish	9
Alimov H.N., Mirzayev B.R., Toshmatov D.Sh., Yo'ldoshev B.A.	Kasr tartibli diffuziya tenglamasidan manbani aniqlash masalasi	13
Farxodov S.U., Yusupov X.N., Doliyev Sh.Q., Toshtemirov R.T.	Po'lat ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilishda optimallashtirish usulini qo'llash	20
Ibodullayev M.X., Norqulov J.F., Saidov B.Y.	Neft va gaz sanoati korxonalarida issiqlik almashinish apparatlarining zamonaviy samarador konstruksiyasining hisobi	28
Nuriddinov J.Z., Primov J.F.	Parabolik tipdagi integro-differensial tenglama uchun teskari masalalar	36
Sayliyeva G.R.	Uch o'lchamli qo'zg'alishga ega umumlashgan Fridriks modelining xos qiymatlari haqida	45
To'rayev Sh.D., Norqulov U.E., Nazarov M.M.	Turbogeneratorning texnik holatini baholash metodologiyasi	51
Юлдашева Н.Б.	Темир боратнинг оптик, магнитооптик ва фотомагнит хоссалари	57
Shoimov B.S., Jamolov Sh.J.	Singulyar koeffitsiyentga ega bo'lgan giperbolik tipdagi tenglama uchun Koshi masalasi	66
Jumayev J., Muhammadova M.	Ochiq oqim kengayishi kattaligidan turbulent qovushoqlik tenglamasi modelida foydalanish	71
Фаязов К.С., Худайберганов Я.К.	Условная корректность начально-краевой задачи для системы неоднородных уравнений параболического типа с двумя линиями вырождения	76
Jumayev J., Baqoyeva S.T.	Nostatsionar konvektsiya masalasini oshkor usulda yechish	86
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Akramov I.I.	Researching the origins of aphorisms	91
G'aybullayeva N.I.	Tilga kognitiv yondashuvning shakllanish taraqqiyoti	95
Raxmatova M.M., Inoyatova D.I.	O'zbek badiiy adabiyotida xunuklik tushunchasining ifodalanishi	100
Қутлиева М.Ғ.	Инглиз ва ўзбек тилларида қўшма сўзларда урғунинг аҳамияти	105
Maxmudova S.X.	"Ostona" konsepti lingvomadaniy birliklarining badiiy matndagi o'rnini	110
Rabiyeva M.G', Mustoqova S.U.	Evfemizmlarning ingliz va o'zbek tillarida lingvomadaniy shartlanishi	115
Navruzova N.X.	Connotation in verbs and its expressive functions	119
Nazarova N.A.	Bases of the theoretical study of anthroponyms and their	126

EVFEMIZMLARNING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA LINGVOMADANIY SHARTLANISHI

Rabiyeva Mohidil G‘ayratovna,

Buxoro davlat universiteti

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik

kafedrası o‘qituvchisi

m.g.rabiyeva@buxdu.uz

Mustoqova Sitora Umurzoqovna,

Buxoro davlat universiteti

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik

mutaxassisligi magistranti

s.u.mustoqova2022@buxdu.uz

Annotatsiya: Evfemizmlarga oid tarjima masalalari har doim juda dolzarb bo‘lib kelgan. Tarjimonlar uchun evfemizmlarni tarjima qilishning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish muhim. Bugungi kunda ushbu savol bir qator tadqiqotchilar va tarjimonlar tomonidan o‘rganilmoqda. Bu yillar davomida dolzarb bo‘lib qoladi, chunki tillar doimo rivojlanib bormoqda, ularda yangi so‘zlar paydo bo‘ladi va tarjimonlar ularni boshqa bir tildan tarjima qilish ustida ishlaydi. Tilshunoslikda ushbu mavzu bo‘yicha ko‘plab maqolalar mavjud. Ushbu maqolada evfemizmlarning ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvomadaniy shartlanishi va shu tillardagi tarjimasi haqida ma‘lumot berilgan. Ushbu ishning maqsadi og‘zaki va yozma nutqda ko‘p qo‘llaniluvchi evfemizmlarning ingliz tilida kelib chiqishini o‘rganish va lingvokulturologik ahamiyatini misollar yordamida Ingliz va O‘zbek tillariga tarjima qilish orqali o‘rganishdir.

Kalit so‘zlar: evfemizm, lingvomadaniyat, tibbiyot, jinoyat va jazo, og‘zaki va yozma nutq, frazeologik evfemizm.

Аннотация: Вопросы перевода, касающиеся эвфемизмов, всегда были очень актуальны. Переводчикам важно знать особенности перевода эвфемизмов. Сегодня этим вопросом занимается ряд исследователей и переводчиков. Он остаётся актуальным на протяжении многих лет, ведь языки постоянно развиваются, в них появляются новые слова, а переводчики работают над их переводом с одного языка на другой. В данной статье представлена информация о лингвокультурной обусловленности эвфемизмов в английском и узбекском языках и их переводе. Целью данной статьи является изучение происхождения эвфемизмов, часто употребляемых в устной и письменной речи на английском языке, и изучение их лингвокультурного значения путём перевода на примерах.

Ключевые слова: эвфемизм, лингвокультура, медицинский дискурс, преступление и наказание, устная и письменная речь, фразеологический эвфемизм.

Annotation: Translational issues regarding euphemisms have always been relevant. It is important for translators to know the peculiarities of translating euphemisms. Nowadays this question is studied by a number of researchers and translators. It remains relevant over the years because languages are constantly evolving, new words appear in them, and translators work on translating them from one language into another, there are many articles on this topic in linguistics. This article provides information about the linguistic and cultural conditioning of euphemisms in English and Uzbek. The purpose of this work is to study the origin of euphemisms that are often used in oral and written speech in English and to study their linguistic and cultural importance by translating them into English and Uzbek languages using examples.

Keywords: euphemism, linguaculture, medical discourse, crime and punishment, phraseological euphemism.

Kirish. Bugungi zamonaviy, ilm-fan taraqqiy etgan, texnika-texnologiya shiddat bilan rivojlanayotgan innovatsiya asrida tarjimashunoslik sohasi yuqori ahamiyatga ega sohalardan biriga aylandi. Sababi, tarjimon ijodkorlar yaratgan asarlar, ularning ijod mahsuli bo‘lgan maqola va qo‘llanmalar tufayli boshqa rivojlangan

davlatlarda amalga oshirilayotgan innovatsiya, turli sohalarda yaratilgan ixtiro va so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish imkoniyati yaratildi. Ushbu ishda so'zlashuv diskursida uchraydigan evfemizmlarning ingliz va o'zbek tillaridagi ma'nolari tarjimai berilgan. Evfemizm yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "yumshoq ifodalash" degan ma'noni anglatadi. Evfemizm – nutqdagi o'rinsiz, nojo'ya yoki qo'pol so'zlarni yanada mos va maqbul variantga aylantirish demakdir. Odatda ular sog'liqni saqlash sohasidagi turli holatlar, kasalliklar, jinsiy yaqinlikka oid so'zlar, o'lim holatlarini ifodalovchi salbiy yoki aytish noqulay bo'lgan masalalarni to'g'ridan-to'g'ri muhokama qilishdan qochish uchun ishlatiladi. Shuningdek, evfemizmlardan badiiy adabiyotda ham keng foydalaniladi. Bunda muallif noqulay so'z yoki ibora bilan almashtiriladi.

Mavzuga doir adabiyotlarning tahlili. Umumiy tilshunoslikda evfemizmlar ko'plab turkiy xalqlar tomonidan o'rganilgan, jumladan, Qozoq, Turkman, Oltoy, Ozarbayjon, O'zbek va Rus tilshunoslari tomonidan bu borada sezilarli ishlar amalga oshirilgan. Ular orasida quyidagi tilshunoshlar mavjud: S.Alfeev, N. Ismatullayev, N.M. Jabbarov, V.B. Babakova. Turk tilshunoslari K. Demirchi, A. Gungor, V.Soylezmez kabilar turk tilida nisbatan kam o'rganilgan evfemizmlarni o'rganishdi. Inglizabon gazeta va jurnallar, R.Xolderning "How not to say what you mean" nomli tematik evfemizmlar lug'ati va Robert Luis Stivenonning "The Strange case of Dr Jekyll and Hyde" asari tadqiqot obyekti sifatida tanlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. G'arb bilan bir qatorda turkiy tilshunoslar ham ushbu mavzu bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borishmoqda. Evfemizmlar haqidagi tushuntirishlar, atamalar va terminologik lingvistik yechimlardan ko'ra u bilan bog'liq muammolar ko'proq. Faktlar shuni ko'rsatadiki, evfemizmi umuman nutq qatlamli sifatida tizimli o'rganish, uning nutqdagi barcha ichki imkoniyatlarini aniqlash, uning funksional, uslubiy tavsifi va xususiyatlari, ayniqsa uning turlarga oid munosabati funksional uslublari bugungi kunda metodologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. G'.Abdurahmonovning "hozirgi paytda adabiyotshunoslar va tilshunoslar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu badiiy uslub va nutq uslubining o'ziga xos umumiy va xususiy jihatlarini ochib berish", deb ta'kidlashi ham shuningdek, aynan shu mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Dissertatsiyada tavsifiy, lingvomadaniy, pragmalingvistik, psixolingvistik, etnolingvistik, sotsiolingvistik, funksional-diskursiv tahlil metodlaridan foydalanilgan. Evfemizmlar nutq qatlamida eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan bo'lib, ularni badiiy asarlarda, kinofilmlarda ham juda ko'p uchratish mumkin. Quyida kinofilmda qo'llanilgan evfemizmlardan namuna keltirilgan:

Bir odamga *siz o'lgandan keyin ...* ma'nodagi gapni aytishda ingliz tilida quyidagi gaplardan foydalanilgan: *Once you're no longer in the position of physically controlling the property/ If you take a long vacation / Eventually we're all gonna take the same long vacation.*

Ingliz tilida kishilarni tasvirlovchi sifatlardan ham ehtiyohtkorlik bilan foydalanish talab qilinadi, chunki har bir o'ylanmasdan va lingvokulturologik tahlil qilinmasdan ishlatilgan so'z yoki ibora insonlarga haqorat sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Misol uchun:

Fat – *semiz* sifatini insonga nisbatan ishlatish qo'pollik hisoblanadi, buning o'rniga *high bmi (high body mass index)*, ya'ni, *og'ir vazn toifali yoki yengil vazn toifali- lower bmi* so'zlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida berilgan misolda salbiy ma'noli so'z nisbatan neytral so'zga almashilgan. *Fat* so'zining salbiy konnotatsiyaga ega bo'lgan boshqa ma'nodosh variantlari ham mavjud. Masalan, *big-boned- suyagi yirik, overweight -oshiqcha og'irlikka ega, plus-sized - katta o'lchamli*. Shuningdek, *fat* so'zining kulgili evfemizmi ham mavjud bo'lib *semiz* so'zining yumshoq formasi sifatida ijobiy shaxs va qahramonlarga nisbatan ishlatiladi. *Salad dodger*, ya'ni *salatdan qochuvchi, salat yoki ozdiruvchi sog'lom ovqatlar yemaydigan do'mboq kishi*.

Stupid so'zini *jinni, devona* deyish o'rniga *having limited insight*, ya'ni, *aqli noqis, aqlan zaif* so'zi ishlatiladi.

Shuningdek, bo'yi past kishilarni tasvirlashda *short*, ya'ni, *kalta* so'zi bilan emas, balki nisbatan muloyimroq eshitaladigan *vertically challenged* vertikal jihatdan bo'yi past, *bo'yi unchalik uzun bo'lmagan* iborasi qo'llaniladi.

Sloppy/smelly so'zlari so'zma-so'z tarjima qilinganda *badbo'y, sassiq* shaklida ishlatiladi, ammo madaniyat va muloyimlik yuzasidan ushbu so'zlarni *not well groomed, ya'ni o'ziga yaxshi qaramagan, oro bermagan* shaklida qo'llagan afzal.

Shuningdek, eng ko'p uchraydigan va qo'llaniladigan evfemizmlar o'lim bilan bog'liq holatlar bo'lib, ular juda ko'p shakllarga egadir. Misol uchun, *died – pushing up the daisies*, ya'ni *vafot etgan va ko'milgan*. Bu yerda ushbu ibora lingvokulturologik ahamiyatga ega, chunki odatda xristian diniga mansub kishilar dafn qilinganidan keyin qabr ustiga gullar ekiladi. Bu ibora ilk marotaba 1918-yilda Uilfred Ouenning I Jahon Urushi haqidagi she'rlarida qo'llangan.

Yoki boshqa bir misol ko'riladigan bo'lsak, *six feet under olti fut (uzunlik o'lchovi) pastda*, bu evfemizmning kelib chiqishi ham tarixga borib taqaladi. Aynan 1665-yilda Londonda aholining ko'p qismining nobud bo'lishiga sabab bo'lgan Vabo kasalligi mana shu evfemizmning kelib chiqishi bilan bog'liq, ya'ni, usha davrdagi hukmdor shu kasallikdan vafot etgan kishilar jasadini hayvonlar qazib chiqarmasligi uchun odamlarni 6 fut chuqurlikda qabr qazib, dafn etishni buyurgan. Shu tariqa yana bir evfemizm til tarkibidan joy olgan.

Bought it ushbu idioma ham *o'ldi* degan so'zni yumshatish maqsadida foydalaniladi. Aslida bu so'z I Jahon Urushi davrida paydo bo'lgan bo'lib, avvaliga faqat harbiylar nutqida qo'llangan, keyinchalik barcha kundalik hayotda ham undan foydalanadigan bo'lgan. Ayrim taxminlarga ko'ra, Amerikada urush davrida har bir halok bo'lgan askar uchun sug'urta puli berilishi aytilgan, shuning uchun ham vafot etgan harbiyga nisbatan *uni sotib oldi*, ya'ni *bought it* idiomasi ishlatilgan.

Give up the oxygen habit, ya'ni, *nafas olishdan to'xtamoq* iborasi o'pka va nafas yo'llari kasalliklari bilan o'g'rib, vafot etgan bemorlarga nisbatan qo'llaniladi. O'lim holatini aytishning kulgili evfemizm shakli– *plucking turnips*.

Yevropa davlatlarida *ishsiz* so'ziga salbiy ma'noga ega so'z sifatida qaraladi. Shuning uchun ham ishidan bo'shatilgan kishiga nisbatan *unemployed* so'zi o'rniga *between jobs*, *making a career transition/seeking a career change opportunity*, *de-hired*, ya'ni, *yangi*, *o'ziga mos kasb izlayapti* iborasi ishlatiladi.

Shuningdek, kasb va ish masalalariga jiddiy ahamiyat beriladigan Yevropa davlatlarida ishdan bo'shatish iborasi uchun ham maxsus evfemizmlar mavjud. Bunda *to hire*, ya'ni, *ishdan haydash* so'zi emas, *to let someone go*, ya'ni *ishdan ketishga ruxsat berish* ma'nosidagi evfemizm ishlatiladi.

Homiladorlik holati ham evfemizmlardan keng foydalanishga sabab bo'ladigan vaziyatdir. Bunda *pregnant*, ya'ni, *homilador* so'zi o'rniga *expecting* – *farzand kutaypti*, *in a family way* – *ko'payish arafasida* iboralar qo'llaniladi.

Heart failure o'zbek tiliga *“Yurak xuruji”* deb tarjima qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yurak xurujiga oid evfemizmlar ingliz tilida quyidagicha ishlatiladi: *“You have fluid on your lungs as your heart is not pumping hard enough”* – *“Sizning o'pkangizda biroz suv yig'ilib qolganligi bois yuragingiz yetarli darajada yaxshi ishlamayapti”*, yoki *“your heart is a bit weaker than it used to be”* – *“Sizning yuragingiz odatdagidan biroz zaiflashgan”* va *“Your heart is not pumping properly”* – *“Sizning yuragingiz yetarli darajada urmayapti”*. Juda kam holatlarda *“left ventricular dysfunction”* – *“chap tomon disfunktsiyasi”* evfemizmi ishlatiladi. Ba'zan shifokorlar nutqida o'tkir kasalliklarni Lotin tilidagi nomi bilan atash holatlari ham kuzatiladi, masalan, *cancer* – *“kenser”* or *“CR”* – *“Si er”*.

Inson biologik holati bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar mavjud bo'lib, ularni ifodalashda to'g'ridan-to'g'ri so'zlardan foydalanish axloq me'yorlarga zid hisoblanadi. Shuning uchun bu vaziyatlar uchun ham ba'zi evfemizmlardan foydalanish ma'qulroq. Masalan, *to urinate*, *to pee* – *peshob qilish* o'rniga, *to go to number one* – *kichik hojatga chiqish*, *to defecate* so'zi o'rniga *to go to number two* – *katta hojatga chiqish* yoki *to do business* – *o'z ishini qilish* iboralaridan foydalanish nutqni chiroyliroq qiladi.

To go to toilet/ WC – *hojatxonaga bormoq* iborasi xunuk eshitiladi, shuning uchun bunday holatda *to powder one's nose* – *yuziga upa surib kelish* evfemizmi afzalroqdir va shuni qayd etish joizki, ushbu evfemizmni faqat ayollar nutqida qo'llashi mumkin. Shuningdek, *to go to bathroom*, *to go restroom* birliklari ham bu vaziyatda neytral ibora sanaladi.

Love handles – *the excess fat that they have around the waistline*, ko'p hollarda semiz kishining beli atrofida yig'ilib qolgan ortiqcha yog'ga nisbatan ishlatiladi.

Intimate relationship, ya'ni, *jinsiy aloqa* nutqda qo'llash uchun noqulay, uyatli holat bo'lgani uchun *make love*, ya'ni, *sevgi bilan mashg'ul bo'lmoq* evfemizmi ishlatiladi.

To vomit, *to throw up*, ya'ni, *qusmoq*, *qaytarmoq* so'zlari ko'ngilni behuzur qiladigan so'z bo'lgani uchun ko'pincha *To lose one's lunch* yoki *egurgitate* birligidan foydalaniladi. Hazil evfemizm sifatida *to pray to the porcelain God* birligidan foydalaniladi.

Idiot, *stupid* so'zlari haqorat so'z ma'nosida qo'llangani uchun qo'pol so'z hisoblanadi. Uni quyidagi evfemizm yordamida chiroyliroq ifodalash mumkin: *Not the sharpest tool in the shed*, so'zma-so'z tarjima qilganda tokchada turgan asboblardan ichida eng o'tkiri emas, ya'ni *keraksiz*, *foydasiz*, *biror yaxshi fikr berishga yaroqsiz*, *tentak*.

To be sick or ill, *kasal bo'lmoq* deb tarjima qilinadi, ammo inglizlar ushbu so'zni yumshoqroq aytish maqsadida *be under the weather*, ya'ni *tobi yo'q* iborasidan foydalanadilar.

Have the sniffles – liquid comes from the nose because of the a cold or allergy, shamollash yoki allergiya kasalliklari tufayli yuzaga keluvchi burun oqishi *have the sniffles*, ya'ni *burnini tortmoq* iborasi orqali ifodalanadi.

Evfemizmlarni jinoyat va jazo sohasida ham uchratish mumkin. Masalan, *prison, jail* so'zlari tarjimai uchun – *qamoqxona yoki hibsxona* so'zlari emas, *correctional facility*, ya'ni *axloq tuzatish koloniyasi* birligi yuritiladi.

Death penalty, o'lim jazosi juda ayanchli va qo'rqinchli holatni gavdalantirgani uchun ko'p hollarda shu soha vakillari tomonidan *Capital punishment*, ya'ni, *bosh jazo, og'ir jazo* iborasi qo'llaniladi.

Xulosa. Evfemizm tilda sinonimlar, frazeologizmlar va boshqa yondosh hodisalar bilan munosabatga kirishadi. Evfemizmlarni biz konseptual sinonimlar turiga kiritdik, sababi ushbu so'zlar faqatgina kontekstda sinonim hisoblanadi. Evfemiztik frazeologizmlar esa obrazli ma'noda qo'llanilgani uchun evfemistik ma'no tashishi mumkin. Maqollar ma'lum xalqning tarixi, madaniyati va urf-odatlarini o'zida aks ettirgani uchun ushbu xalqlarda aytilishi taqiqlangan tushunchalarni berkitish maqsadida qo'llaniladi. Ko'rib chiqilgan evfemizmlarning aksariyati umumlashtirish va metaforizatsiya, shuningdek ma'no kengayishi kabi usullar yordamida shakllangan. Zamonaviy tilshunoslikda "evfemizm" atamasining talqini bo'yicha ikkita asosiy fikrni ajratish mumkin. Tor ma'noda evfemizm atamasi "taqiqlangan so'z yoki ibora, keng ma'noda esa nomaqbul hisoblangan tushunchani "g'iloqlash", "yashirish" va "niqoblash"ni nazarda tutadi.

ADABIYOTLAR:

1. Antrushina G.B. *English Lexicology*. G.B.Atrushina, O.B. Afanasyeva, N.N.Morozova. – M.: Drofa, 2004. – 288p.
2. Бойко Т.В. *Эвфемия и дисфемия в газетном тексте: автореф.дис.Бойко Т.В.* - Санкт - Петербург, 2005.- 19 с.
3. Вильданова Г.А. *Эвфемия и принцип вежливости в современном английском языке: гендерный аспект.*- М.: Директ-медиа, 2015.- 48 с.
4. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H., *O'zbek tili stlistikasi*, T., 1983.
5. Rabiyeveva M. *Difficulties of Differentiating Euphemisms and Dysphemisms //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT.* – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 127-132.
6. Haydarova Nodirabegim Axtamjon qizi. (2020). *Linguocultural analysis of english and uzbek medical phraseological units describing physiological processes. European Journal of Research Development and Sustainability*, 1(4), 15-17.
7. Манакова Мария Сергеевна. (2018) *Эвфемизмы в англоязычных и русскоязычных женских и мужских журналах.* Екатеринбург. 2018
8. Omonturdiyev A., *O'zbek nutqining evfemik asoslari*, T., 2000.
9. Rabiyeveva M. *Difficulties of Differentiating Euphemisms and Dysphemisms // Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT.* – 2022. – T. 2. – №. 5. – C. 127-132.
10. www.wikipedia.com
11. www.pubmed.ncbi.nlm.nih.gov